

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK
VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
VETERINARIYA PROFILAKTIKASI VA DAVOLASH FAKULTETI**

“ICHKI YUQUMSIZ KASALLIKLAR”
kafedrasi assistenti Sh.A. Botirovaning

“Klinik diagnostika” fanidan

«Siydikni tekshirish» mavzusi bo‘yicha
60840200 – Veterinariya farmasevtikasi ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich 305 – guruh
talabalari uchun

*Laboratoriya
ochiq dars
ishlanmasi*

Samarqand – 2024 yil

Tuzuvchi:

Sh.A. Botirova – “Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrasi assistenti

Taqrizchilar:

M.B. Safarov - “Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrasi dotsenti

O.U. Qo‘ldoshev - VITI, Vetsanitariya va urchitish patologiya laboratoriysi
mudiri, v.f.d..

Mavzu: "Siydikni tekshirish" mavzusidagi laboratoriya mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

<i>Mashg'ulot vaqt - 80 daqiqa</i>	Talabalar soni- 20 nafar
<i>O'quv mashg'ulotning shakli:</i> laboratoriya mashg'uloti	Salomlashish, yo'qlama, o'tilgan mavzuni so'rash va baholash, yangi mavzuni tushuntirish va ish jarayonini tashkillashtirish.
<i>Laboratoriya mashg'ulotining o'quv elementlari:</i>	1. Teshirish uchun siydikni olish va uni saqlash usllari. 2. Siydikning fizik va kimyoviy xossalarini aniqlash.

1. O'quv mashg'ulot maqsadi. Talabalarga siydikni olish usullari, siydikning fizik xossalarini va kimyoviy kursatgichlarini aniqlashni o'zlashtirish orqali ko'nikmalarini shakllantirish.

<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<p>1.1. Siydikni tekshirganda quyidagi ko'rsatgichlarni aniqlash usullarini talabalarga namoyish etish: siydik fizikaviy kўrsatgichlarini: миқдори, ранги, ҳиди, тинклиги, консистенцияси, зичлиги, kimyoviy ko'rsatgichlaridan: siydik muhitini, oqsil, qand, qon segmentlari, keton tanachalari, bilirubin borligini aniqlaydi, tekshirganda o'zgarishlar bor-yo'qligi, sog'lom hayvonlarda va kasalliklarda qanday o'zgarishi to'g'risida ma'lumot beradi, hayvonda сийдикни лаборатор усулларини bajarib ko'rsatadi.</p> <p>1.2. Talabalarga siydikni fizikaviy va kimyoviy ko'rsatgichlarini laboratoriya tekshirish usullari yordamida tekshirib natijalarini daftarga yozishga topshiriq beradi. O'qituvchi talabaning mustaqil bajarishini nazorat qilib turadi.</p> <p style="text-align: center;"><i>(1-topshiriq)</i></p> <p>2. Talaba darslikdan siydik olish usullarini o'rgangandan keyn hayvon tabiiy siydik chiqarganda yoki maxsus reflekslar orqali</p>	<p>1.1. Talabalar eshitadi yozadi va mavzu bo'yicha topshiriqlarni mustaqil bajarib, natijalarini daftarga yozib, vrachlik xulosasini shakillantiradi.</p> <p>1.2. Talabalar siydikni fizikaviy va kimyoviy ko'rsatgichlarini laboratoriya tekshirish usullari yordamida tekshirib natijalarini o'zgorganmi yoki yo'q, klinik tekshirib, aniqlaydi va natijalarini daftarga tushiradi hamda vrachlik xulosasini yozadi.</p> <p>2. Talabalar hayvon tabiiy siydik chiqarganda yoki maxsus reflekslar orqali siydikni maxsus avvaldan tayyorlab</p>

avvaldan tayyorlab qo‘yilgan maxsus shisha idishga 200 ml siydik олинади ва текширишга тайёрланади natijalarini va shaxsiy xulosalarini daftariga yozadi	qo‘yilgan maxsus shisha idishga 200 ml siydik olib tekshirishga tayyorlaydilar.
<p style="text-align: center;">(2-topshiriq)</p> <p>3. Talaba metodikalar bo‘yicha siydikning fizikviy ko‘rsatgichlarini; miqdori, rangi, tiniqligi, konsistensiyasi, hidi, siydikni zichligini aniqlaydi, natijalarini daftariga yozib, tahlil qiladi va xulosalarini yozadi.</p>	<p>3. Talabalar siydikni fizikaviy ko‘rsatgichlarini (miqdori, rangi, tiniqligi, hidi, konsistensiyasi, zichligini) vizual ва урометр ёрдамида aniqlaydi va шифокорлик xulosasini daftarga yozadi.</p>
<p style="text-align: center;">(3-topshiriq)</p> <p>4. Talaba metodikalar bo‘yicha siydikning kimyoviy ko‘rsatgichlarini; siydik muhitini, uning tarkibida oqsil, qand, qon pegmentlari, keton tanachalari, bilirubin borligini aniqlaydi, natijalarini daftariga yozib, tahlil qiladi va xulosalarini yozadi.</p>	<p>4. Talabalar siydik tarkibida oqsilni aniqlash uchun 20 foizli sulfasaliqil kislatasi va 50 foizli azot kislatasi yordamida tekshirishни бажаради. Siydik tarkibidagi qandni aniqlash uchun Benedikt va Ekspress usullarida tekshirish o‘tkaziladi. Bilifan reagenti yordamida siydik tarkibidagi keton tanachalar ва билирубин miqdori aniqlanadi va vrachlik xulosasini daftarga yozadi.</p>
<p>5. Darsni yakunlash.</p>	<p>5. Mavzu yuzasidan umumiy xulosalarga keladilar.</p>
<i>Ta’lim usullari</i>	Aqliy hujum, tezkor savol javob, kichik guruhlarda ishslash, topshiriqlarni mustaqil bajarish.
<i>Ta’limni tashkillashtirish shakli</i>	Guruqli
<i>Ta’lim vositalari</i>	Hayvon (sigir, qo‘y. echki). steril shisha idish, kateter, urometr, oddiy indikator qog‘ozlari, universal indikator qog‘ozi, 20 foizli sulfosolit kislatasi, 50 foizli azot kislatasi, mis sulfat tuzi, bilifan reagent, kompyuter, videoproektor, slaydlar, sochiq, doska, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali jixozlar.
<i>Ta’lim berish sharoiti</i>	Maxsus jihozlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki so‘rov: tezkor – so‘rov, test.

“Siydikni tekshirish” mavzusidagi laboratoriya mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchi
Tayyorlov bosqichi	<p>Mavzu bo‘yicha ta’limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi.</p> <p>Belgilangan ta’limiy maqsadlarga mos o‘quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi</p>	
1 - bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 daq.)	<p>1.1. O‘tilgan mavzuni so‘raydi, baholaydi va yangi mavzu bilan bog‘laydi.</p> <p>1.2 Mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatliligi va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>1.3. Tekshirilayotgan siydikda fizikaviy va kimёвий ko‘rsatgichlarini aniklaш ва sog‘lomlikda qanday bo‘lishi va kasalliklarda qanday o‘zgarishi haqida ma’lumot beradi.</p>	<p>1. Tinglaydilar.</p> <p>2. Savollarga javob beradi.</p> <p>3. Eshitadi, yozib oladi.</p>
2 - bosqich Asosiy bosqich (60 daq.)	<p>2.1. Mavzu bo‘yicha tekshiriladigan siydikni fizikaviy va kimyoviy ko‘rsatgichlarini tekshirib usullарини ўзлаштириш ва o‘zgarishlar bor-yo‘qligi, sog‘lom hayvonlarda va kasalliklarda qanday o‘zgarishi to‘g‘risida ma’lumot beradi va tekshirish usullaridan foydalanib bajarib ko‘rsatadi. Talabalarni o‘zlari mustaqil tekshirib topshiriqni bajaradilar o‘qituvchi nazorat qiladi.</p> <p>2.2. Talaba siydikni fizikaviy va kimyoviy ko‘rsatgichlarini aniqlaydi, daftariga yozadi, tahlil qiladi va xulosasini shakillantiradi. O‘qituvchi talabaning mustaqil bajarishini nazorat qiladi.</p>	<p>2.1. Talabalar kichik guruhlarga ajralib, siydikni fizikaviy va kimyoviy ko‘rsatgichlarini tekshirib o‘zgarishlar bor-yo‘qligi, sog‘lom va kasal hayvonlardagi ko‘rsatgichlar taqqoslab xulosalarni daftarga yozadi.</p> <p>2.2. Talabalar kichik guruhlarga ajralib, siydikni tekshiradi, tahlil qiladi va xulosasini yozadi.</p>
3 - bosqich. yakuniy	3.1. Laboratoriya mashg‘uloti bo‘yicha yakuniy xulosa qilinadi. Siydikni tekshirish	3.1. Tinglaydilar xulosa chiqaradilar va tushinmagan

(10 daq.)	<p>natijasiga qarab sog‘lom yoki kasal deb diagoz qo‘yishda siydikni tekshirish usullarini o‘rganish muhum ahamiyatga ega ekanligini, talabaga kelgusida kasbiy faoliyatlarida muhim ekanligini etkazadi.</p> <p>3.2. Darsda faol qatnashgan talabalarni rag‘batlantiradi.</p> <p>3.3. Dars yakunida umumiy xulosa chiqariladi, talabalar savoliga javob beradi, uyga topshiriq beriladi va foydalilaniladigan adabiyotlar ro‘yxati beriladi.</p>	<p>joylariga savollar beradi.</p> <p>3.2. O‘z-o‘zini, o‘zaro baholashni o‘tkazadilar.</p> <p>3.3. Tushinmagan joyiga savol beradi. Topshiriqni yozadilar.</p>
-----------	---	---

Mavzu: SIYDIKNI TEKSHIRISH

O‘quv elementlari

1. Teshirish uchun siydikni olish va uni saqlash usllari.
2. Siydikning fizik va kimyoviy xossalari aniqlash.

Mashg‘ulotning maqsadi: Siydikni olish usllari, siydikning fizik xossalari va kimyoviy kursatgichlarini aniqlashni o‘zlashtirish orqali ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tayanch iboralar: siydikni olish va uni saqlash usllari, siydikni tekshirish tartibi va usullari, poliuriya, oliguriya, anuriya, urometr, siydikda oqsil, uglevod, qon, gemoglobin, keton tanachalari va bilirubin miqdorini aniqlash usllari, glyukozuriya, gematuriya, gemoglobinuriya, proteinuriya belgilari, siydik cho’kmasini mikroskop ostida tekshirish.

B.B.B. SXEMASI

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
<i>(dars boshida yoziladi, talabining birlamchi bilimini baholash uchun)</i>	<i>(Dars boshida yoziladi o‘qituvchi ishini rejalash uchun)</i>	<i>(Dars oxirida yoziladi talabining qo‘sishimcha olgan bilimini baholash uchun)</i>

5-laboratoriya mashg‘uloti **Mavzu; Siydkni tekshirish (2 soat)**

Reja;

1. Teshirish uchun siydikni olish va uni saqlash usllari.
2. Siydkning fizik va kimyoviy xossalari aniqlash.

Foydalaniladigan adabiyotlar

1. Safarov M.B., Safarov M.M. Klinik diagnostika va rentgenologiya. Darslik. “Sano- standart” nashriyoti. Toshkent, 2019 yil.
2. Cettle and sheep medicine. Philip R. Scott. Manson publishing. London, 2010 years.
3. Kurdeko A.R. Klinecheskaya diagnostika bolezney jivotnykh. Meditsinskaya kniga, Minsk, 2013 god.

Darsning maqsadi: Siydkni olish usullari, siydkning fizik xossalari va kimyoviy kursatgichlarini aniqlashni o’zlashtirish.

Dars jihozlari - Siydkni olish uchun stakanchalar, o’lchov kolbasi, namoyish etiladigan materiallar, asboblar, hayvonlar: ot, yirik shoxli hayvon, qo’y.

Mashgulotning borishi: Oqituvchi 10 daqiqa davomida talabalarga siydkni olish va saqlash usullari, siydkning ximik xususiyatlarini aniqlash hamda siydk cho’kmasini mikroskop ostida tekshirish usullari to’g’risida tushuntirib beradi.

Teshirish uchun siydikni olish va uni saqlash usllari

1-topshiriq-


Talaba darslikdan siydk olish usullarini o‘rgangandan keyn hayvon tabiiy siydk chiqarganda yoki maxsus reflekslar orqali avvaldan tayyorlab qo‘yilgan maxsus shisha idishga 100 ml siydk olib, ish kabinetida siydkning fizik xususiyatlarini; rangini, hidini, konsistensiyasi, tiniqligini va nisbiy zichligini aniqlash, tekshirish natijalarini va shaxsiy xulosalarini daftariga yozadi.

Siydk organizm hayoti va faoliyatining mahsuli sifatida hayvonlar organizmining ichki muhiti bo‘lganligi sababli hayvonlar tekshirilganda siydk ham tekshirishi zarurdir. Chunki organizmda kechadigan jarayonlar, shu jumladan patalogik jarayonlar ham albatta siydkning miqdor va sifat ko‘rsatkichlariga ta’sir etadi. Natijada siydkda o‘ziga xos o‘zgarishlar namoyon bo‘ladi. Bu o‘zgarishlar kasalliklarning klinik belgilari namoyon bo‘lishidan ancha ilgari kuzatiladi. Shuning uchun siydk tekshirilganda uning

natijalariga qarab kasallikning subklinik rivojlanish davrida aniqlash imkoniga ega bo‘lamiz. Siydik buyraklarda hosil bo‘lgan va organizmining ichki muhiti hisoblanib, siydik chiqarish tizimi orqali chiqib ketadi.

Tekshirish uchun siydikni olish va uni saqlash usullari

Tekshirish uchun siydik ertalab nahorda hayvonlarni oziqlantirilmasidan olinadi. Ertalab olishga ulgurilmasa, oziqlantirilgandan 3-4 soat olgandan so‘ng olinadi. Siydik bir necha usullar bilan olinadi: tabiiy siydik chiqarish paytida, kateterizatsiya yoli bilan, maxsus siydik to‘plovchi idishlarda olinadi. Siydik toza, mikrobsizlantirilgan, steril shisha idishlarga olinishi kerak. Chunki idishlar iflos bo‘lsa ishqor, kislota, qon, sut qoldiqlari bo‘lsa, siydik ko‘rsatkichlarini o‘zgartiradi. Tekshirish uchun siydik odatda avvaldan tayyorlangan, hayvon halqa raqami yozilgan shisha idishlarda tabiiy siydik chiqargan paytda, 200 ml miqdorda olinadi. Siydikni tezda olib tekshirish zaruriyati tug‘ilsa tabiiy siydik chiqarishini kutmasdan, kateter yordamida olinadi.. Siydik olingandan so‘ng 1—1,5 soat ichida tekshirilishi shart. Siydik uzoq muddatda saqlansa fizik va kimyoviy ko‘rsatkichlari o‘zgaradi. Agarda 1-1,5 soatda tekshirish iloji bo‘lmasa, muzlatkichda +4°С haroratda saqlanadi yoki konservatsiya qilinib muzlatkichda saqlanadi. Siydikni konvervatsiya qilish uchun 1 /1 siydikka bir donacha timol moddasi yoki 5-6 ml xloroform suvi 200 ml siydikka qo‘shiladi. Lekin, trimol qo‘shilgan siydikda oqsilni aniqlab bo‘lmaydi. Xloroform suvini tayyorlash uchun 1 1 suvgaga 5-7 ml xloroform qo‘shiladi.



200 ml

**Siydik quyidagi
tartibda
tekshiriladi**

**Siydikning fizik
xossalari**

**Siydikning
kimyoviy
ko‘rsatkichlari**


**Siydik cho‘kmasim
mikroskop ostida
tekshirish**

2-topshiriq

Talaba metodikalar bo'yicha siydikning fizikaviy ko'rsatgichlarini; dik muhitini, uning tarkibida oqsil, qand, qon pegmentlari, keton iachalari, bilirubin borligini aniqlaydi, natijalarini daftariga yozib, tahlil adi va xulosalarini yozadi

Siydikning rangini aniqlash uchun, siydik toza shisha idishga olinib, oq rang fonida aniqlanadi. Sog'lom hayvonlar siydi och sariq rangda bo'ladi. Jigar kasalliklarida, oliguriyada siydik rangi to'q sariq bo'ladi. Siydik rangi kasalliklar paytida o'zgaradi. Siydik bilan gemoglobin, qon chiqqa boshlasa siydik qizil rangda bo'ladi, siydik bilan yiringli ekssudat chiqsa oqimtir, ko'kintir rangda bo'ladi, siydik bilan moy chiqsa sutsimon oq rangda bo'ladi. Siydikning miqdori kamaysa to'q sariq rangda, siydikning miqdori ko'paysa och sariq rangda bo'ladi, siydikni rangini berilayotgan dorilar ham o'zgartiradi.

Tiniqligi, konsistensiyasi va hidi siydik chiqarish yo'llarida kasalliklar bo'lsa o'zgaradi. Bunda siydik bilan yiring, ko'p miqdordagi mikroblar, hujayralar aralashib siydik quyqali bo'ladi, hidi o'zgaradi: agarda siydik pufagida achish jarayoni kechsa siydikdan achigansimon hid keladi, ketoz kasalligida siydikdan keton, atseton hidi keladi, chirish jarayoni ketayotgan bo'lsa siydik juda sassiq bo'ladi.



Siydikni nisbiy zichligini aniqlash. Buning uchun 100 ml hajmli silindrga siydik qo'yilib, ichiga urometr apparati tushiriladi, urometr siydikda qalqib turadi, urometrdagi qaysi raqam, siydik yuzasida to'g'ri kelsa shu siydikning nisbiy zichligidir. Poliuriya paytida, modda almashinishi buzilganda siydikning nisbiy zichligi kamayadi. Oliguriyada, siydik chiqarish yollari kasalliklarida nisbiy zichlik ko'tariladi.



Siydikning kimyoviy xossalalarini aniqlash

3-topshiriq

Talaba metodikalar bo'yicha siydikning kimyoviy ko'rsatgichlarini; dik muhitini, uning tarkibida oqsil, qand, qon segmentlari, keton iachalari, bilirubin borligini aniqlaydi, natijalarini daftariga yozib, tahlil adi va xulosalarini yozadi

Bunda maxsus reaksiyalar orqali siydik bilan chiqadigan moddalar son yoki sifat jihatdan aniqlanadi. (oqsil, keton tanachalari, gemoglobin, qon, o't suyuqligi segmentlari, ammiak, mochevina va boshqalar).

Me'yorda siydik bilan oqsil, uglevod umuman chiqmaydi. gemoglobin, qon bo'lmaydi. Keton tanachalari, o't kislotasi segmentlari juda kam miqdorda ajraladi va qo'yilgan reaksiyalar salbiy natija beradi. Kasalliklar paytida, ayrim fiziologik jarayonlarda bu moddalar siydik bilan ajrala boshlaydi

Siydik pH-shi yoki muhitini aniqlash usullari

Siydik muhiti faqat yangi olingan siydikda aniqlanadi. Chunki siydik olingandan keyin tabiiy holda muhiti o'zgaradi. Siydik amaliyotda ko'pincha indikator qog'ozlari (Bilifan universal indicator qog'ozi, oddiy ondikator qog'ozi yordamida aniqlanadi. Siydik muhitini aniq holda faqat Ph-metrda aniqlash mumkin. Sog'lom hayvonlar siydigining muhiti beriladigan ozuqalarning tarkibiga, ular tarkibidagi ishqor va kislota ekvivalentlariga bog'liq. Sog'lom o'txo'r hayvonlar siydigi muhiti ishqoriy yoki neytral; go'shtxo'r hayvonlarda kislotali bo'ladi. Ozuqalardagi ishqoriy va kislotali ekvivalentlar nisbatining uzoq vaqt davomida buzilishi albatta siydik muhitining o'zgarishiga olib keladi. O'txo'r hayvonlarga uzoq muddat donli ozuqalar ko'p miqdorda berilganda (go'shtga boqiladigan hayvonlarni oxirgi oylarda shunday oziqlantiriladi) ham siydik

muhiti kislotali bo'ladi. Go'shtxo'r hayvonlar faqat kartoshka, guruch va sabzavotlar bilan uzoq vaqt oziqlantirilsa siydiqi ishqorli muhitda bo'ladi. Hayvonga ozuqa berilmasa ham (och qolganda) siydiq kislotali muhitga ega bo'ladi, ich ketish va isitma bilan kechadigan kasallikkarda ham siydiq kislotali muhitga o'tadi. Urotsistit kasalligida, siydiq qovuqda uzoq vaqt turib qolganda siydiq ishqorli muhitga ega bo'ladi.



Oddiy indikator qog'ozlari yordamida siydiq muhitini aniqlash usuli.

Buning uchun ko'k rangli indikator qog'ozni bo'lakchasi siydkka botirilib, rangiga e'tibor beriladi. Siydkka botinlgandan keyin lakmus qog'ozining ko'k rangi o'zgarmasa, siydiq muhiti ishqoriy; binafsha rangga aylansa, siydiq muhiti kislotali ekanligidan dalolat beradi. Binafsha rangli lakmus qog'ozni bo'lakchasi siydkka botirilgandan keyin rangi o'zgarmasa, siydiq muhiti kislotali, rangi ko'k rangga o'tsa, siydiq muhiti ishqorli deb xulosa chiqariladi. Bu usulda faqat muhitning ishqorli yoki kislotali ekanligini aniqlash mumkin.

Universal indikator qog'ozni yordamida siydiq muhitini aniqlash usuli.

Bu indikator qog'ozida 14-ta har xil rangga bo'yalgan alohida bo'laklar majmuasi bor. Universal indikator qog'ozining bir bo'lakchasi siydkka botirilgandan keyin hosil bo'lgan rang indikatorning rangli shkalasi ranglariga taqqoslanadi. Indikator qog'oz bo'lagi rangi shkaladagi qaysi rangga o'xshasa yoki yaqin bo'lsa, o'sha rangdagi raqamga qarab siydiq muhiti aniqlanadi. Misol uchun, rang 1-6 raqamlar rangiga o'xshasa, siydiq kislotali muhiti (1-2 raqam - kuchli kislotali; 5-6 raqami-kuchsiz kislotali); 7 raqami rangiga o'xshasa-neytral muhit; 8-14 raqamlari rangiga o'xshasa ishqorli muhit (9-10 raqami-kuchsiz ishqoriy 11-12 raqami-o'rtacba ishqoriy; 13-14 raqami-kuchli ishqoriy) bo'ladi.

pH-metr asbobi yordamida siydiq muhitini aniqlash usuli

Bunda asbobning ishlatish yo'riqnomasi asosida siydiq muhiti aniqlanadi.

Siydikda oqsilni aniqlash usullari

Sog'lom hayvonlar siydigida oqsil bo'lmaydi. Siydiq bilan oqsilning chiqishiga proteinuriya deyiladi. Kelib chiqishiga qarab proteinuriya 3 xil bo'ladi.

1. Haqiqiy proteinuriya - siydiq chiqarish tizimi a'zolari kasalliklarida

(nefrit, nevroz, sistid, uretrir) kuzatiladi;

2. Yolg'ondakam proteinuriya — jinsiy a'zolar kasalliklarida kuzatiladi;
3. Tasoditiy proteinuriya - siydik olgan idishda oqsil bo'lsa kuzatiladi.

Siydikda oqsil borligini quyidagi usullarda aniqlanadi:

1. Rocha-Vilyama usuli - probirkaga 3-5 ml tekshiladigan siydik quyilib, uning ustiga bir tomchi 20 foizli sulfosolit kislotasi tomiziladi. Proteinuriya bo'lsa kislotasi o'tgan yo'1 bo'ylab oq tuman hosil bo'ladi.



2. Geller usuli- probirkaga 3 ml 50 foizli azot kislotasi quyiladi, ustidan probirka devori bo'ylab sekin 3 ml siydik quyiladi. Proteinuriya bo'lsa ikki suyuqlik chegarasida oq halqa paydo bo'ladi. Bu usul bilan siydikda oqsil konsentratsiyasi 0,33 g/1 va undan yuqori bo'lganda ijobjiy reaksiya beradi.

Haqiqiy proteinuriyaning o'zi ham funksional va organik proteinuriyaga bo'linadi. Funksional proteinuriya hayvonlar tuqqandan keyin; yangi tug'ilgan hayvonlarda 10 kun davomida; ko'p miqdorda donli ozuqalar berilganda kuzatilishi mumkin. Funkuional proteinuriya qisqa vaqtda kuzatiladi va buyrak kasalliklari belgilari kuzatilmaydi. Organik proteinuriya buyrak kasalliklarida kuzatiladi (nefrit, nifroz va pielonefritda).

Siydikda qandni aniqlash usullari

Siydikdagi qand yangi olingan siydikda aniqlanadi. Uzoq muddat saqlangan siydikda bakteriyalar va zambo'rug'lar ajratgan fermentlar ta'sirida qand parchalanib ketadi.

Siydikdagi qand quyidagi usullar bilan aniqlanadi.

1. Benedikt usuli- 1 litrli kolbaga 700 ml distillangan suv, 173 g sitrat natriy, 100 g suvsiz (yoki 200 g kristalli) karbonat natriy solinib, tuzlar eriguncha qizdiriladi. Alohida 100 mili kolbaga 100ml uisillangan suv va 17,3 g mis sulfati tuzi solinib eritiladi. Ikkala kolbadagi eritmalar 1 litrli kolbaga solinib, bir litrga etguncha distillangan suv quyiladi. Siydikda qandni aniqlash uchun probirkaga reaktiv qo'yilib, uning tekshiriladigan siydik tomiziladi va 2 minut olovda yoki 5 minut suv hammomida qizdiriladi. Agarda qizdirgandan keyin eritma rangi yashil bo'lsa, glyukoza borligini

bildiradi; 2.Ekspress usul - buning uchun maxsus tayyorlangan rentgenlar: “Glyukotest” yoki “Bitifan”dan foydalaniladi. Tekshirish uchun rentgenlar siydkka botirib olinadi va rangining o‘zgargan-o‘zgarmaganligiga e’tibor beriladi.

Siydik bilan glyukozaning ajralishiga glyukozunya deyiladi. Fiziologik va patologik glyukozuriya bo‘lishi mumkin. Fiziologik glyukozuriya hayvonlarga ko‘p miqdorda uglevodli ozuqalar (qandli va ozuqali lavlagi) berilganda kuzatiladi. Bu paytda qonda glyukoza miqdori keskin ko‘payadi, buyrak kanalchalarida reabsorbsiya paytida kerakli miqdordagi glyukoza qonga qayta so‘riladi, ortiqchasi siydk bilan tashqariga chiqariladi. Patologik glyukozuriya: 1) markaziy nerv tizimi kasalliklari (quturish, listerioz, itlarda o‘lat)da; 2) qandli diabetda rivojlanadi. Bu paytda buyrakdagagi egri kanalchalarda organizm uchun kerakli miqdordagi glyukoza qayta so‘riladi, ortiqchasi siydk bilan chiqariladi. Oshqozon osti bezida insulin muddasining ishlab chiqarilishi kamayishi natijasida qand glyukozaga aylanmaydi. Qandli diabetda glyukozuriya bilan birgalikda poliuriya va siydk nisbiy zichligining oshishi ham kuzatiladi. Patologik glyukozuriya skipidar, xloroform, xloralgidrat bilan zaharlanganda ham bo‘ladi.

Siydikda keton tanachalarini aniqlash usullari

Siydikdagi keton tanachalari “Bilifan” rentgeni yordamida aniqlanadi. Buning uchun rentgen siydkka botirib olinadi va rangining o‘zgargan-o‘zgarmaganligiga e’tibor beriladi. Sog‘lom hayvonlar siydigida: ot siydigida 0,1-0,7 mmol/1, qoramol siydigida 0,3-1,1 mmol/1, qo‘y siydigida 0,6-1,5 mmol/1 keton tanachalari bo‘ladi. Siydk bilan me’yordan ortiq keton tanachalarining chiqishiga ketonuriya deyiladi.

Siydikda qon va qon pigmentlarini aniqlash usullari

Sog‘lom hayvonlar siydigida qon va qon pigmentlari (gemoglobin) bo‘lmaydi. Siydk bilan qon chiqishiga gematuriya; gemoglobinning chiqishiga gemoglobinuriya deyiladi. Siydk tarkibidagi qonni vizual aniqlash u erdag'i qon miqdoriga bog‘liq; 1 mkl siydkda 25000 eritrotsit bo‘lsa, siydk qizil rangda bo‘ladi, siydkda qon cho‘kmasi cho‘kishi holati kuzatiladi. Bu holatda siydkda qon bo‘lsa makrogematuriya deyiladi. Agarda siydkda qon bo‘lsayu, lekin qizil rangda bo‘lmasa mikrogematuriya deyiladi. Gematuriya siydk ajratish tizimi a’zolarida qon oqish bo‘lganda, siydk-tosh kasalligida kuzatiladi. Gematuriya holati karam bilan zaharlanganda, o‘tkir nefritda, buyrakdagagi vena qon tomirlari qonga to‘lganda, qovuqda o‘smalar o‘sganda; kuydirgi va o‘lat kasalliklarida, og‘ir holatdagi S va K gipovitaminozida, pilonefrit va urotsistitda ham kuzatiladi. Gematuriyada qon qaysi organdan oqayotganligini aniqlash ham katta ahamiyatga ega. Buning uchun tabiiy siydk chiqarganda chiqqan siydk 3 ta idishga olinadi: birinchi idishga birlamchi chiqqan siydk, ikkinchi idishga o‘rtada chiqarilgan siydk, uchinchi idishga oxirgi siydk olinadi. Birinchi idishdagi siydkda qon bo‘lsa, bu uretrit, uchinchi idishdagi siydkda qon bo‘lsa, bu sistit; uchala idishdagi siydkda ham qon bo‘lsa, bir necha a’zoda qon oqayotganligini bildiradi. Og‘ir kechayotgan pielonefrit,

urotsistitda siydikda ko‘p sonli leykotsitlar bo‘ladi. Hayvonlarning qon parazitar kasalliklarida parazitlar erotsitlar ichiga kirib, ko‘payadi; bunda eritrotsitlar kattarib, birin- ketin yoriladi (lizisga uchraydi); eritrotsitlar ichidagi gemoglobin erkin holda qon tarkibiga o‘tadi va siydik bilan organizmdan chiqariladi. Bunda ham siydik qizil bo‘ladi.

Siydikda billirubinni aniqlash usullari

Sog‘lom hayvonlar siydigida oz miqdorda bilirubin bo'ladi. Buni tekshirish uchun maxsus rentgendasdan foydalaniladi. Siydikda bilirubin miqdori me'yorga nisbatan ko'paysa, bilibinuriya deyiladi. Bu jigar kasalliklarida jigar faoliyatining buzilganligini ko‘rsatadi. Mexanik sarg‘aymada, parenximatoz sarg‘aymada; hepatitda, infektion ensefalomielitda bilirubinuriya rivojlanadi.

Мавзуга оид тест топшириклари

1. Glyukozuriya nima?

- a) siydikda glyukozaning bo’lishi
- v) siydikda qonning bo’lishi
- s) siydikda toshning bo’lishi
- d) siydikda cho’kmalar bo’lišči

2. Ketonuriya nima?

- a) siydikda glyukozaning bo’lishi
- v) siydikda qonning bo’lishi
- s) siydikda toshning bo’lishi
- d) siydikda keton tanachalarining bo’lishi

3. Proteinuriya nima

- a) siydikda toshning bo’lishi
- v) siydikda qonning bo’lishi
- s) siydikda oqsilning bo’lishi
- d) siydikda cho’kmalar bo’lishi

4. Aseton, siydik, achqimtir hidlar qachon paydo bo’ladi?

- a) ketozi, uremiya, yiringli yallig’lanish
- v) ketozi, hepatit, yiringli yallig’lanish
- s) ketozi, uremiya, ekssudatli yallig’lanish
- d) ketozi, uremiya, transsudatli yallig’lanish

5. Siydikning fizikaviy xususiyatlariga nimalar kiradi?

- a) Miqdori, konsistensiyasi, tiniqligi, zichligi
- b) Miqdori, rangi, hidi, konsistensiyasi, siydik tarkibida oqsil bor yuqligi, tiniqligi, zichligi
- c) hidi, konsistensiyasi, tiniqligi, zichligi
- d) Miqdori, rangi, hidi, konsistensiyasi,

Siydikni fizikaviy ko‘rsatgichlarini kirititing?

Nazorat savollari:

1. Siydikni tekshirish usullarini aytib bering.
2. Siydikni olish va saqlash usullari qanday?
3. Siydikni tekshirish tartibini gapiring.
4. Siydikda proteinuriya qanday aniqlanadi?
5. Glyukozuriya qanday holatlarda kuzatiladi?
6. Gematuriya va gemoglobinuriya qanday farqlanadi?

